

## 7-9 YOSHLI SEREBRAL FALAJLI(BSF) BOLALARNING BOSHLANG'ICH KO'NIKMALARINI LOGOPEDIK ISH JARAYONIDA SHAKLLANTIRISH

Abdumo'minova Hulkar Bahromovna

Jizzax viloyati Zarbdor tumani

Navro'z MFY da Xotin - qizlar faoli,

Jizzax Davlat pedagogika universiteti

Defektologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7267152>

**Annotatsiya.** Maqolada 7-9 yoshli serebral falajli(bsf) bolalarning boshlang'ich ko'nikmalarini logopedik ish jarayonida shakllantirish mavzusi yuzasidan bazi fikrlar. Logopediya va psixo-diagnostik tajribalar borasida xulosalar keltirilgan. Ilmiy ishlar va amaliy tajribalar, o'yin va boshqa metodlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** BSF, o'yin, guruh bilan ishlash, metod, logopediya. Tayanch-harakat, nutq, nuqson

Nutq bolaning yuqori psixik funksiyalarini shakllanishida alohida muhim rol o'ynaydi. Bola uchun kattalar bilan so'zlashuv funksiyasini bajarib, fikrlashni rivojlantirish, bolaning o'zini tutishini rejalashtirish va boshqarish, uning hayot davomidagi psixik faoliyatini tashkillashtirish uchun baza bo'ladi, shaxs rivojlanishiga to'liq ko'maklashadi. Shuning uchun zamonaviy maxsus pedagogika va psixologiyada bolaning anomal rivojlanishining oddiy xolatlarini, ya'ni ko'p bolalarda uchraydigan va nutq buzilishiga olib keladigan nuqsonlarni erta yoshda aniqlab ularni bartaraf etish tartiblari tasdiqlangan (V.LLubovskiy). Nuqsonlarning bir qismi faqatgina talaffuz etish jarayoniga tegishli va nutqning tushunish darajasi past bo'lgan paytda aniqlanadi. Boshqa nuqsonlar nutqning fonematik tomoniga mansub va nafaqat talaffuz paytida defekt bilan gapirish, balki o'qish va yozish qobiliyatini pasayishiga olib keluvchi so'zning jarangdorligini xis qilish sust ekanligini ham bildiradi. Uchinchilari - bu kommunikativ nuqsonlardir, ular bolaning maktabda ta'lim olishiga va ijtimoiy muxitga moslashishiga yordam beradi<sup>1</sup>.

Bolalar falaji — nerv sistemasining turli zararlanishlari oqibatida ro'y beradigan va reflektorharakat, ba'zan ruhiyat va nutqning buzilishi bilan kechadigan kasalliklar guruhi. Bosh miyaning spastik (serebral) falaji va periferik nervlar zararlanishidan kelib chiqadigan (shalviratuvchi) falajlikdan farq qiladi. Bolalar spastik falaji ko'pincha qo'l, oyoq va tana muskullari falaji, aqliy , tutqanoq

<sup>1</sup> D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova "RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR I D.IAGNOSTIKASI" Toshkent – 2016 76-b

tutishi, giperkinez (ixtiyorsiz harakatlar paydo bo'lishi), zararlangan qo'loyoqlarda trofik o'zgarishlar ro'y berishi ko'rinishida namoyon bo'ladi<sup>2</sup>.

Hozirgi kunda DSP rivojlanishi sababi sifatida bosh miyaning turli xil omillar ta'sirida zararlanishi, miyaning ma'lum bir sohalarida nerv hujayralarining noto'g'ri shakllanishi yoki nobud bo'lishini keltirish mumkin. Ushbu omillarning ta'siri perinatal davrda yoki bola dunyoga kelganidan so'ng qisqa muddatlarda (4 haftagacha) ta'sir etishi kasallik rivojlanish ehtimolini oshirib yuboradi. DSP rivojlanishining eng asosiy omili – bu gipoksiyadir.

Falaj yengil bo'lsa, bola o'sgani sari ahvoli yengillashadi, kech o'tiradi, qo'llarini tuzuk ishlata olmaydi. Muskullar o'ta tarangligi tufayli bola yurganda oyoqlari chalishadi, sonlari ichkariga buralib, tizzalari, u faqat oyoq uchida mayda qadam tashlab yuradi. Bola hayajonlanganda, behosdan qattiq tovush eshitganda va boshqalarda muskullar tortishuvi kuchayadi, ixtiyoriy harakatlar qiyinlashadi va aqliy rivojlanishi kechikadi, asallikning barcha shakllarida mutaxassisga o'z vaqtida murojaat etish va uning tavsiyasiga binoan davolanish zarur. Ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklidan qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb atalib bolalar serebral falajiga ega bolalarni mashg'ulotlarga qiziqishini oshiradi.

Afsuski, hozirgi kunda bolalar serebral falaji davosi topilmagan kasalliklar qatoriga kiradi. Ammo, o'z vaqtida boshlangan davo muolajalari ta'sirida bolalar ruhiy jihatdan ham jismoniy jihatdan o'z tengdoshlariga yetib olishga erishish mumkin.

7-9 yoshdagi bolalarda serebral falajli bolalarda o'quv ko'nikmalarini egallashdagi qiyinchiliklar harakt-tayanch a'zolaridagi nuqsonlar oqibatida kelib chiqadi. Ular so'zلامي to'liq idrok etishda qiynaladilar, o'xshash tovush ko'rinishlarini chalkashtiradilar. Natijada bolalarda ko'ruv mukullarida buzilishlar bo'lib, qatomi to'g'ri kuzata olmay uni yo'qotib qo'yadilar, bir so'zdan ikkinchisiga o'tishda qiynaladilar. Bunday bolalar mantiqiy grammatik, ya'ni fazoviy xarakterga ega so'z (chapda, pastda, tagida, ustida va x.k.lar) va jumlar tuzilmalami qiyinchilik bilan tushunadilar.

Meyorda aqliy rivojlanishga ega bolalar qiyinchiliklarsiz yoshlariga xos bo'lgan matnlami tushunadilar.

Serebral falajlikka (BSF) ega bo'lgan bolalarda (boshlang'ich tushunchalar) sanash ko'nikmasini egalash uchun olziga xos qiyinchi likلامي boshdan

<sup>2</sup> Egamberdiyeva Nigora Azizovna "BOLALAR SEREBRAL FALAJIDA O'YINLI METODLARDAN FOYDALANISH" Analytical Journal of Education and Development ISSN: 2181-2624 207-b

kechiradilar. Ulaming ko'pi qiyinchilik bilan okngacha bo'lgan sonlar tarkibini o'zlashtirib oladilar; grafik ko'rinishi bo'yicha bir biriga o'xshash sonlarni adashtiradilar, sonlar qatorini o'ng tomondan chapga qarab tuzadilar.

Ushbu kasallikning logopedik metodda qisman davolash usuli o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferentsiyalar, o'yinmashqlarga ajratish mumkin.

Mahoratli logoped-pedagog avval ularni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchilar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot — ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat.

1. O'yin turli yoshdagi bolalar faoliyatini rivojlantirishning mustaqil shakli hisoblanadi.
2. O'yinlar ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'z-o'zini anglash faolligini oshirishdagi eng erkin shakldir.

3. O'yin rivojlantiruvchi amaliyot, sababi: bolalar o'ynaganlari uchun rivojlanadilar, rivojlanish uchun o'ynaydilar.

4. O'yin o'z-o'zini anglashda, o'z-o'zini boshqarishda aql va ijodda erkinlikdir.

Bir so'z bilan aytganda bugungi kunda biz bolani jismoniy jihatdan o'stiruvchi oddiy o'yinlardan tortib, kattalar orasida ham mashhur bo'lgan intellektual o'yinlardan iborat bir qancha o'yinlar «ombori»ga egamiz. Shu nuqtai nazardan logopedik uslubda bolalaraning BSF falajini davolash va ularda boshlang'ich ko'nikmalaarni shakllantirish tizimli ravishda mahoratli mutaxassi va individual nazoratda o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi degan fikrdamiz..

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Samarova Shoxista Rabidjanovna; Mirzayeva Mavluda Akramovna The problem of the formation of creative abilities of students in foreign psychology.
2. Nurmunaurod ogli, N. M. (2022). TA'LIM KLASTERINING SAMARALI RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR. Ta'lim va Rivojlanish Tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(1), 54-57
3. Rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion rivojlantiruvchi texnologiyalar. Majmuaviy monografiya. Matrix-2020
4. G'afforov Ya. Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogic texnologiyalardan foydalanish usullari. O'quv qo'llanma. Toshkent 2021 3. M.U.Xamidova. Maxsus pedagogika (mutaxassislikka kirish) Toshkent 2018
5. S.J.Achilova Dislaliya.Dizartriya. O'quv qo'llanma. Toshkent 2021
6. Dehqonova, M., & Najmiddinova, N. (2022). Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning oilaga moslashishi uchun muhim omillar. yangi o'zbekistonda milliy taraqqiyot va innovasiyalar, 90-92.